

**MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI
FANINI O'QITISHDA TARMOQ O'QUV METODIK MAJMUASIDAN FOYDALANISH
USULLARI.**

Jo'raeva Xushruxa

*Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va
umumiy biologiya kafedrasida o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada masofaviy ta'lim jarayonida Odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitishda tarmoq o'quv metodik majmuasidan foydalanishning afzalliklari, lekin bizning ta'lim muassalarimizda tarmoq o'quv - metodik majmualari ishlab chiqilmagan, va demak, masofaviy ta'lim jarayonida Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishda yetarlicha foydalanilishi mumkin emas. Shuningdek ko'pchilik o'qituvchilarda turli kompyuter vositalari bilan tez ishlash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaganligi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Tarmoq o'quv metodik majmua, masofaviy ta'lim, elektron darslik, gipermedia, interfaol, ta'lim, o'quv material, ijtimoiy tarqmoq.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены преимущества использования сетевого учебно-методического комплекса в преподавании анатомии и физиологии человека в дистанционном образовательном процессе, но сетевые учебно-методические комплексы не разработаны в наших образовательных учреждениях, в связи с чем не могут быть использованы в достаточной мере. в преподавании анатомии и физиологии человека в дистанционном образовательном процессе. Также сказано, что у большинства учителей недостаточно развиты навыки быстрой работы с различными компьютерными средствами.*

Ключевые слова. *Сетевой учебно-методический комплекс, дистанционное обучение, электронный учебник, гипермедиа, интерактив, образование, учебный материал, социальная сеть.*

Abstract. *In this article, the advantages of using the network educational methodical complex in the teaching of Human Anatomy and Physiology in the distance education process, but the network educational methodical complexes have not been developed in our educational institutions, and therefore, it cannot be used sufficiently in the teaching of Human Anatomy and Physiology in the distance education process. It is also said that most teachers have insufficiently developed skills to work quickly with various computer tools.*

Keywords. *Network educational methodical complex, distance education, electronic textbook, hypermedia, interactive, education, educational material, social network.*

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rnida oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanini masofaviy tarzda tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi.

Elektron o'quv-metodik majmuasi masofaviy ta'lim jarayonida Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishning yana bir muhim vositasi hisoblanadi.

Tahlillar va o'rganishlar natijasida o'quv materialini tarmoqda taqdim etish tuzilmalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar asosida o'qitish vositasi tarmoq interfaol o'quv-metodik majmuasidan iborat bo'lishi kerakligi aniqlandi. Bu majmua ikkichi avlod tarmoq elektron darsliklariga kiradi va internetning Usenet, IRC, Iphone kabi xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyati borligi sababli kengaytirilgan interfaol funktsiyalarga ega. Hozirgi vaqtda bu tizimlar takomillashtirilgan bo'lib, ularning kengaytirilgan imkoniyatlarga ega ko'pgina analoglari mavjud. Bunday tizimlarga igoogole, turli ijtimoiy tarqmoqlarni, ICQ, Zoom, Telegram, Instagram, Facebook va hokazolarni kiritish mumkin. Biroq o'quv materialini yaxshiroq taqdim etish uchun axborotni taqdim etishda turli-tumanlikni ta'minlovchi, shuningdek bir-birining o'rnini bosa oladigan dasturiy vositalar komplektini o'z ichiga oluvchi saytlar uchun maxsus qobiqlar ishlab chiqilgan.

Elektron o'quv-metodik majmuasi quyidagi didaktik funktsional bloklarga ega bo'lishi rejalashtirildi:

- 1) tashkiliy-metodik;
- 2) axborot-o'rgatuvchi;
- 3) identifikatsion – nazorat qiluvchi [47].

Majmuaning psixologo-pedagogik funktsiyalari talabalarning tarmoq ichidagi o'zaro aloqalar uchun mavjud bo'lgan turli-tuman dasturlar hisobiga o'qituvchilar bilan, o'qitish vositalari bilan gipermedia, didaktik o'zaro ta'sir muhitida o'quv materialini taqdim qilish orqali amalga oshirishi ko'zda tutildi.

Rejalashtirilgan va ishlab chiqilishi mo'ljallangan tarmoq o'quv-metodik majmualarning didaktik bloklarining tavsiflarini qarab chiqamiz. Tashkiliy-metodik blokning mazmuni Odam anatomiyasi va fiziologiyasining maqsadlari, vazifalari, o'quv dasturiga kiruvchi boshqa fanlar bilan bog'lanishi haqidagi ma'lumotlarni, o'quv dasturidagi mavzularning qisqacha mazmunini, Odam anatomiyasi va fiziologiyasini tarmoq - o'quv metodik majmuasi yordamida o'rganishning tartibi va tavsiyanomalarni; adabiyotlar tahlili va hisobot va nazorat shakllarini; o'qituvchi bilan o'zaro aloqani tashkil qilish tartibini o'z ichiga oladi. Talabalarga psixologik qulay bo'lishi uchun majmua vizuallashtirilgan. Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishda tasdiqlangan darslikning elektron ko'rinishi ana shunday matnli fayl hisoblanadi[40].

Axborot-o'rgatuvchi blok hajmi jihatidan o'quv mavzusiga teng modullardan iborat. Modullar gipermedia muhitida tayyorlangan. Har bir modul testlarga, bilimlarni mustaqil tekshirish va nazorat qilish uchun turli topshiriqlarga, butun blok esa ma'lum davrlar (chorak, trimestr, yarim yillik) uchun yakuniy testlarga ega. O'quv matndagi gipermatnli havolalar Oliy ta'lim muassasi talabasiga fan mavzulari bo'yicha maxsus yaratilgan maxsus xrestomatiya, Internet axborot resurslari, elektron kutubxona resurslari, glossariy bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Elektron xrestomatiya muqobil o'quv qo'llanmalar, maqolalar, Odam anatomiyasi va fiziologiyasidan kompyuterda o'rgatuvchi dasturlardan va boshqa ma'lumotlardan olingan lavhalarning tuzilmalashtirilgan to'plami, shuningdek qo'shimcha o'quv va fakultativ ma'lumotlardan iborat.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy-o'quv dasturiga mos ravishda har bir mavzuga ishlab chiqilgan amaliy topshiriqlar o'qitishning muammoli metodini amalga oshirishni ta'minlaydi. Ular o'qitishning individual grafigiga mos ravishda bajarilib, o'qituvchiga tekshirish uchun jo'natiladi va virtual o'quv guruhida muhokama qilinadi [38].

Yakuniy nazorat videokonferentsiya aloqa yordamida yoki yuzma-yuz (talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib) o'tkaziladigan yakuniy testlarni yoki topshiriqlarni tekshirish bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, elektron o'quv-metodik majmuasidan foydalanish masofaviy o'qitish jarayonini to'la qonli ta'minlaydi. Axborotni uzatish uchun turli-tuman o'quv materiallaridan foydalanish mumkin, maxsus vositalar yordamida audio va video aloqani amalga oshirish mumkin, majmuada bilimlarni nazorat qilish va boshqa talabalar bilan axborot almashish mumkin. Ushbu majmuadan foydalanishga oid tavsiyalar tufayli mustaqil ta'lim olish yoki bilimlarni chuqurlashtirish uchun ham foydalanish mumkin. Majmualarga kirish o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun erkin bo'lib, majmuadan o'qituvchilar va talabalarining foydalanishini nazorat qilish imkonini beradi. Elektron o'quv-metodik majmuasidan foydalanish o'qitish uchun zarur bo'lgan kompyuter dasturlarining sonini kamaytirish imkonini beradi, demak, turli o'qitish vositalaridan va materiallaridan foydalanish osonlashadi. Bizning ta'lim muassalarimizda tarmoq o'quv-metodik majmualari ishlab chiqilmagan, va demak, masofaviy ta'lim jarayonida Odam anatomiyasi va fiziologiyasini o'qitishda yetarlicha foydalanilishi mumkin emas. Shuningdek ko'pchilik o'qituvchilarda turli kompyuter vositalari bilan tez ishlash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Voroyanskiy, F.S. Informatika: Новый систематизированный толковый словарь-справочник (Введение в современные информационные и телекоммуникационные технологии в терминах и фактах) / Ф. С. Воройский.

2. Begimqulov U.Sh. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. "Fan nashriyoti" Toshkent.– 2011. – 205 b.

3. Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoref. dis... ped. fan. doktori. – T.: TDPU, 2018. – 45 b.

4. Jo'raeva X. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida masofaviy ta'lim o'qitish turi sifatida. Новости образования: Исследлвание в XXI век – 2022. –678-683 б.

5. Juraeva, K. (2021). PRINCIPLES OF USING NETWORK TOOLS IN IMPROVING THE METHODS OF DISTANCE TEACHING "HUMAN ANATOMY AND PHYSIOLOGY" IN HIGHER EDUCATION. *CURRENT*

6. Жўраева, Х. (2021). ЛОЙИҲАВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА "ОДАМ ВА УНИНГ САЛОМАТЛИГИ" КУРСИНИ МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСУЛЛАРИ. *Интернаука*, (22-4), 94-95.

7. Тоштемирова, М. А. (2022). МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА "ОДАМ АНАТОМИЯСИ ВА ФИЗИОЛОГИЯСИ" ФАНИДАН АНАТОМИК ВА ФИЗИОЛОГИК БИЛИМЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ. *Science and innovation*, 1(JSSR), 11-17.

8. Jo'raeva, X. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БИОЛОГИЯНИ МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШДА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЖАХОН МАМЛАКАТЛАРИДАГИ ТАЛҚИНИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(8).

9. Жўраева, Х. Я. Қ. (2022). ОДАМ АНАТОМИЯСИ ВА ФИЗИОЛОГИЯСИ ФАНИНИ МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИНТЕГРАЦИЯЛАНИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЯНГИ АТАМАЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 117-124.